

**”O’QUVCHI YOSHLAR TARBIIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM
TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI”**

Ko’chkinova Mahliyo Norbutayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Tel: (99) – 711 - 17- 68

E-pochta manzili: mahliyo.kochkinova@mail.ru

Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion

rivojlanish instituti talabasi

Tel: (90) 004 96 01,

E-pochta manzili: botirnormuradov573@gmail.com

S.Ismatov

Ilmiy rahbar: Pedagogika va Psixologiya kafedrası mudiri

Annotatsiya: *Ushbu maqalada jamiyat taraqqiyotiga rahna soluvchi, dunyo ahlini bir nech yillardan buyon og’riqli nuqtasiga aylangan diniy ekstrimizm va terroristik tashkilotlarning paydo bo’lishi, faoliyati va uni bartaraf etish yo’llari hamda kelajak avlod tarbiyasidagi salbiy ta’sirlarining oldini olish, bu zararli illatga qarshi kurashish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *ma’naviy tahdid, terrorizm, diniy ekstremizm, zo’ravonlik, agressivlik mafkurasi, mutaassib fikr, aqidaparastlik, fundamentalizm, BMT, ShHT, “Iroq va Shom islom davlati”, “yaxlit xavfsizlik”, O’zbekiston tajribasi.*

**"УГРОЗА РЕЛИГИОЗНОГО ЭКСТРЕМИЗМА И ТЕРРОРИЗМА В
ОБРАЗОВАНИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ
УСЛОВИЯ ДЛЯ ИХ УСТРАНЕНИЯ**

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы возникновения, деятельности и пути ликвидации религиозного экстремизма и террористических организаций, препятствующих развитию общества и являющихся болевой точкой мира на протяжении многих лет, а также предотвращения их негативного влияния на образование будущих поколений. Комментаторы проводимые реформы по борьбе с этим бедствием.*

Ключевые слова: *духовная угроза, терроризм, религиозный экстремизм, насилие, идеология агрессии, фанатизм, фанатизм, фундаментализм, ООН, ШОС, «Исламское государство Ирака и Леванта», «интегрированная безопасность», опыт Узбекистана.*

"THE THREAT OF RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM IN THE EDUCATION OF YOUTH STUDENTS AND THE EXISTING CONDITIONS FOR THEIR ELIMINATION"

Annotation: *This article discusses the emergence, activities and ways to eliminate religious extremism and terrorist organizations that hinder the development of society and have become a painful point for the world for several years, as well as to prevent their negative impact on the education of future generations. comments were made on ongoing reforms to combat the scourge.*

Keywords: *spiritual threat, terrorism, religious extremism, violence, ideology of aggression, bigotry, bigotry, fundamentalism, UN, SCO, "Islamic State of Iraq and the Levant", "integrated security", the experience of Uzbekistan .*

Tarixdan ma'lumki, inson uchun eng xavfli tahdid bu ma'naviy tahdiddir. Darhaqiqat, bugun eng katta xavf sifatida diniy ekstremizm va terrorizm tilga olinmoqda. Terrorizm birinchi galda insoniyat uchun eng muhim va qimmatli bo'lgan boylik, ya'ni tinchlik, ko'ngil xotirjamligi, mamlakat taraqqiyotining muhim tarixiy omili bo'lgan fuqarolararo hamjihatlikka putur yetkazuvchi asrimizning eng xavfli ijtimoiy illati hisoblanadi. Diniy ekstremizm diniy rang-baranglikni rad etadi. Shu asnoda aqidaparastlar hayotning nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga ham zarar yetkazadilar, jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o'tkazib, eng mudhish shakllardagi zo'rvonlik va agressivlik mafkurasini keng targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar. Manbalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793–1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste'molga kiritilgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukmdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm oshib ketganda unga qarshi kurash ifodasi sanalgan.³² Shunday bo'lsada ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va tarqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etib o'tish lozim. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Ongi zaharlangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb bilgan holda, har qanday yomon ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan "rahnamolarining" asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Ularning asosiy niyati butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligini barpo etish kerak deb kurashmoqdalar. Lekin, ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib olib hokimiyatni qo'lga olish, bu yo'lda „inson“ deb atalmish buyuk zotni o'ldirishdan ham tab tortmayapti. Ular hozirgi kunda, ayni daqiqada ham o'z yovuz, jirkanch ishlarni turli davlatlarda amalga oshirmoqdalar. Dunyoda hech bir

³² Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

din u hoh xristianlik bo'lsin, hoh buddizm, yahudiylik dini bo'ladimi insonlarni hech qachon yovuzlikka, qo'poruvchilikka, qo'rqitishga, odam o'ldirishdek jirkanch bir holatlarga da'vat qilmaydi, balki insonlarni ezgulikka, diyonatga, halollikka undovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan diniy ekstremistik guruhlarining "din" yo'lida olib borayotgan qo'poruvchilik harakatlari mutloqo asossizdir. Yuqorida keltirib o'tgan dinlardek islom dini ham ezgulik dini ekanligiga hech shubha yo'q. Ammo butun dunyoda olib borilayotgan ekstremistik va terroristik harakatlarning aksariyati aynan islom dini niqobi ostida sodir e'tilayotganligi muqaddas dinimizga bo'lgan munosabatni biroz salbiylashtirayotganligi bor gap. Ayniqsa bu guruhlarining eng yirigi, o'zlarining ta'biri bilan aytganda "Iroq va Shom islom davlati"dir. Bir nechta yirik terrorchi guruhlarining o'zaro birlashishidan tashkil topgan, niyatlari o'z bayrog'idek qora, hali hech bir davlat tan olmagan bu "davlat" bugungi kunda butun insoniyatga tahdid solayotgan siyosiy muammoga aylanib ulgurdi. Ular dunyoning turli burchaklarida tinch aholining yuragiga g'ulg'ula solish bilan tartibsizliklar keltirib chiqarishni o'zlariga kasb qilib oldilar. Shu o'rinda bir savol kelib chiqadi: Ular qanday qilib tez fursatda bunday kuchga ega bo'lishdi?

Bilamizki bola tug'ilgandayoq yugurib ketmagan, yohud darhol tili chiqib ona yoki ota degan so'zlarni aytmagan. Biroq yangi paydo bo'lgan bu terroristik tashkilot qisqa fursatda qanday qilib bunday kuchga ega bo'ldi. Bunga quyidagicha javob berish mumkin. Ularning ortida dunyo uchun qora son kasalligidek xavfli bo'lgan qora qo'l tashkilotlar mavjud. Ular shunday buzg'unchi guruhlarini qurol va moliyaviy jihatdan ta'minlab urush boshlashga undaydi. Shu zahoti ikkinchi niqoblarini taqib xujumga uchragan davlatga o'zini himoya qilishi uchun qurol yarog' sotishadi va juda katta foizlar bilan qarz berishadi, tarix bunga guvohlik bera oladi.

Terrorchilarning safini to'ldirayotganlar kimlar o'zi? Bu vahshiylikning oziqlantiruvchi omillardan biri bu qashshoq aholi toifasi bo'lsa, ikkinchi asosiy omillardan biri – bilimsizlik, uquvsizlik va albatta, ongida mafkuraviy bo'shliq shakllangan ijtimoiy qatlamlarning bu yo'lga kirib ketishlaridir. Aynan shu bois ekstremistlar o'zlarining manfur g'oyalariga muqaddas dinimizni niqob qilib olib, odamlar ongiga dinning mavjud bo'lmagan qonun-qoidalar bilan ta'sir etib, ularni atroflariga to'plamoqdalar va bu yo'lda hattoki jonlarni ham qurbon qilmoqda. Aslida din ular uchun e'tiqod qilish uchun emas, balki, o'zlarining g'arazli niyatlari bo'lmish siyosiy hokimiyatni kuch bilan egallashdagi qurol yoki niqob vazifasini bajarib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotiga muqobil ravishda ekstremizm va terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlar sifat va miqdor jihatidan o'zgarib, uning masshtab doirasi tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, terrorchilar sodir etayotgan jinoyatlarning intensivligi va og'irlik darajasi ham kun sayin dahshatli tus olayotgani juda achinarli holdir. Bu esa insoniyat xavfsizligi va dunyo mamlakatlarining ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga tahdid hamon saqlanib

qolayotganidan dalolat beradi. Ekstremizm aqidaparastlik va mutaassiblik bilan bog‘liq bo‘lib, din sohasidagi salbiy hodisalarning o‘ziga xos mantiqiy halqasi sanaladi.

Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir. Ekstremizm va terrorizm illatining so‘nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ham bu masala yuzasidan: **“Ayni vaqtda dunyoning ba‘zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda”**³³ deya ta‘kidlaganlari bejizga emas albatta. O‘zbekiston ekstremizm va terrorizm tahdidlari va zararlarini boshidan kechirgan mamlakat hisoblanadi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo‘yicha yuqori darajada o‘ziga xos tajriba shakllangan. Shu nuqtai-nazardan, yurtboshimiz jahon hamjamiyati e‘tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, trans-milliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta‘minlash mumkin ekanligiga, xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga alohida e‘tibor qaratmoqlarda. Bundan tashqari har bir islohotning eng birinchi navbatda inson manfaatlariga xizmat qilishi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar biz yoshlarni haqli ravishda jaholatga qarshi ma‘rifat bilan harakat qilishga undaydi desam hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Yurtimizda tinchlik, farovonlik va millatlararo o‘zaro totuvlik hukm surmoqda. Bu bebaho ne‘matlarning qadriga yetish barchamizning burchimizdir. Bu tinchlik, taraqqiyot va farovonlik o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, albatta. Bu, avvalambor, Alloh taoloning bizga ravo ko‘rgan cheksiz inoyati bo‘lsa, ikkinchidan, hukumatimiz tomonidan vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashda olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir. Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy-ekstremizm va terrorizmning nafaqat umume‘tirof etilgan zamonaviy qonunlar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko‘rsatadi. Shunday ekan, diniy-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda barchamiz o‘z mas‘uliyatimizni his etishimiz, ogoh bo‘lishimiz, vatanimizning kelajagi uchun javobgar ekanimizni unutmasligimiz lozim.

³³ Sh. M. Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofliгинi asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.

Barchamiz nafaqat o'zimizga balki atrofdagilarimizga ham e'tiborli bo'lsak, talabchan bo'lsak dahldorlik hissi bilan yashashak hech qanday xatar bizga rahna sola olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. 7-bet.

2. Sh. M. Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.

4. O'zbekiston Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyayevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 19-sentabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqidani.-AQSH, 2017.

5. Terrorizm – jaholat o'chog'i, Metodik-bibliografik qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi Toshkent-2003